



## KICHIK TADBIRKORLIK RIVOJLANISHI SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10629673>

**Toshaliyeva Saodat Toxirovna**

*Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),  
dotsent*

*Raqamli iqtisodiyot, biznes boshqaruvi  
va ekonometrika kafedrasи mudiri*

**Kenjaeva Mazluma O'ralovna**

*Muzrabot xizmat ko'rsatish texnikumi  
o'quv tarbiyaviy ishlar bo'yicha direktor o'rinnbosari*

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqola hudud kichik tadbirkorlik iqtisodiy samaradorligini baholashga qaratilgan bo'lib, unda norasmiy yondashuv va ekspert yo'li bilan joriy qilingan mezonlardan foydalanishga asoslangan hudud kichik tadbirkorlik iqtisodiy samaradorligini baholash uslubiyotini taklif etilgan, taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan

#### **Kalit so'zlar**

tadbirkorlik, rivojlanish, huquqiy, ijtimoiy, ekspertli, iqtisodiy baholash, samaradorlik, ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik, sotish xajmi indeksi, rentabellik

### АННОТАЦИЯ

Данная статья направлена на оценку экономической эффективности регионального малого предпринимательства, в которой предложена методика оценки экономической эффективности регионального малого предпринимательства, основанная на использовании неформального подхода и критерии, внедренных эксперты путем, разработаны предложения и рекомендации

#### **Ключевые слова**

предпринимательство, развитие, юридическая, социальная, экспертная, экономическая оценка, эффективность, социально-экономическая эффективность, индекс объема продаж, рентабельность

### ANNOTATION

This article is aimed at assessing the economic efficiency of regional small business, in which a methodology for assessing the economic efficiency of regional



small business is proposed, based on the use of an informal approach and criteria introduced by experts, proposals and recommendations are developed

### Keywords

entrepreneurship, development, legal, social, expert, economic assessment, efficiency, socio-economic efficiency, *sales volume index, profitability*

Kichik biznes rivojlanishining iqtisodiy samaradorligi milliy va hudud iqtisodiyotini modernizatsiyalash yo'lidagi transformatsion jarayonlar muvaffaqiyatiga bog'liq. Bizning fikrimizcha, kichik tadbirkorlik rivojlanish samaradorligi iqtisodiy samaradorlikni o'rghanish bilan cheklanib qolmasligi kerak. Biz quyidagi jadvalda norasmiy yondashuv va ekspert yo'li bilan joriy qilingan mezonlardan foydalanishga asoslangan hudud kichik tadbirkorlik iqtisodiy samaradorligini baholash uslubiyotini taklif etamiz(1-jadval).

Hududda kichik tadbirkorlikni rivojlantirishni baholash asosiy mezoni sifatida mahsulot yuqori sifatli bo'lganda uni ishlab chiqarish xajmining ortishi hamda xarajatlar xajmining kamayishini ifodalovchi rentabellik ko'rsatkichini ko'rib chiqamiz.

### 1-jadval. Hudud kichik tadbirkorlik rivojlanishi samaradorligini baholash mezoni

Baholash mezoni	Samaradorlikning asosiy belgilari	Baholash uchun axborot manbasi
<i>Huquqiy</i>	Faoliyat jarayonida huquqiy norma va qoidalarning buzilish holatlarining yo'qligi	Nazorat taftish, soliq idoralari, prokuratura, bank, auditorlik tekshiruvlari natijalari
<i>Ijtimoiy</i>	Hududdagi ishsizlar sonining kamayishi. Kichik biznesda band aholi sonining o'sishi.	Hududning ijtimoiy-iqtisodiy holatini ifodalovchi statistik hisobot
<i>Ekspertli</i>	Kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan ishlab chiqarilgan tovar, ish, xizmat sifatiga bildirilgan da'vo va e'tirozlarning mavjud emasligi	Jamoatchilik fikrini bilish maqsadida o'tkazilgan so'rov nomasi va uning matbuotda e'lon qilinganligi
<i>Iqtisodiy</i>	Sotilgan mahsulot (tovar, xizmat, ish) xajmi, sifati va rentabelligining oshishi	Moliyaviy hisobot ma'lumotlari. Kichik tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini statistik kuzatish ma'lumotlari



Iqtisodiy baholashning asosiy belgisini ifodalovchi baholash indikatori sifatida hudud kichik tadbirkorligi rivojlanishini iqtisodiy samaradorligi indeksini ( $I_{efrmp}$ ) quyidagi algoritm orqali ifodalaymiz:

$$I_{efrmp} = I_{qcmp} \cdot I_{rmp} \quad (1)$$

Bu yerda:  $I_{qcmp}$ - sifatni hisobga olgan holda qiymat bahosida sotish xajmi indeksi;

$I_{rmp}$  -rentabellik indeksi

Sotish qiymati indeksi (sotilgan tovar, ish, xizmat sifatini hisobga olgan holda) quyidagi algoritmi bo'yicha hisoblanadi:

$$I_{qcmp} = I_{pg} \cdot I_{ys} \quad (2)$$

Bu yerda:

$I_{pg}$ - qiymat bahosida sotish xajmi indeksi;

$I_{ys}$  -sotish sifati o'sish indeksi

$I_{pg}$  - qiymat bahosida sotish xajmi indeksi an'anaviy usulda hisoblanadi:

$$I_{pg} = \frac{V_1 p_0}{V_0 p_0} \quad (3)$$

Bu yerda:  $V_1$  -hisobot davridagi sotish hajmi;

$V_0$  - bazis davridagi sotish xajmi

$p_0$  - sotilgan mahsulot (tovar, xizmat, ish bazis davridagi)

$I_{ys}$  - sotish sifati o'sish indeksi kichik tadbirkorlik sub'ektlari faoliyati sifatini ta'minlash (va oshirish)ni individual xususiyatlarini aks ettiruvchi mahalliy ko'rsatkichlarni jamlash orqali aniqlashda qo'llaniladi:

$$I_{ys} = K_1 \cdot K_2 \cdot K_3 \cdot K_4$$

Bu yerda:  $K_1$ - umumiy sotish xajmida yuqori siftli mahsulotlar ulushi;

$K_2$ - umumiy sotish xajmida eksport mahsulotlar ulushi;

$K_3$  - umumiy sotish xajmida yangi mahsulot ulushi;

$K_4$ -savdo xajmini saralashning (sortnosti) o'rtacha koeffitsienti.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari faoliyati rentabelligi kapital aylanmasining har bir so'mi uchun sarflangan sof foydaniing nisbiy miqdorini aks ettiradi.

Modellashtirishda o'zaro uzviy determinatsiyalashgan ko'p omilli tahlilni kengaytirilgan usuliga asoslangan holda, bazaviy modelning surat va maxraji bir yoki bir nechta yangi ko'rsatkichga ko'paytirilganda biz tomonimizdan ishlab chiqilgan hudud kichik tabdirkorlikni rivojlantirish rentabelligini hisoblashni quyidagi modulini taklif etamiz:

$$I_{rmp} = SP/NI \cdot NI/P \cdot P/SD \cdot SD/Q \cdot Q/A \cdot A/SK \cdot SK/RP \quad (5)$$

Bu yerda:  $SP$ -sof foyda;  $NI$  - soliq imtiyozining umumiy summasi;

$P$  - soliq to'lovlarigacha bo'lgan foyda;  $SD$  - umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda;  $Q$ -aylanma mablag'larning o'rtacha qoldig'i;  $A$ -yalpi aktivlarning o'rtacha



qiymati; SK-o'z kapitalining o'rtacha qiymati; RP- kapital aylanmasi (sotishdan olingan daromad).

**1-jadval. Hudud kichik tadbirkorlik rentabelligini baholashda foydalaniladigan ko'rsatkichlarning iqtisodiy mazmuni**

Ko'rsatki ch	Iqtisodiy mazmuni
<b>SP/NI</b>	Soliqqa tortish samaradorligini ifodalaydi: soliq to'lovining har bir so'mi hisobiga olingan sof foydani aks ettiradi
<b>NI/P</b>	soliq to'lovlarigacha bo'lgan foyda hamda soliq imtiyozining umumiy summasini ifodalaydi
<b>P/SD</b>	Umumxo'jalik faoliyati samaradorligini ifodalaydi: yalpi foydaning har bir so'mi hisobiga olingan foydaning umumiy summasini bildiradi.
<b>SD/Q</b>	Kichik tadbirkorlikning asosiy aktivlari va boshqarishning asosiy quyi tizimlaridan foydalanish samaradorligini aks ettiradi
<b>Q/A</b>	Kichik tadbirkorlikda boshqarishning asosiy ob'ekti sifatida aktivlar tuzilmasi yoki aylanma aktivlar ulushini aks ettiradi
<b>A/SK</b>	Kapital tuzilmasini ifodalaydi: kapital multiplikatori
<b>SK/RP</b>	O'z kapitalidan qisman foydalanishning ishchanlik faolligini aks ettiradi: o'z kapitalining aylanma tezligi

Ushbu uslubiyat hudud kichik tadbirkorlik sub'ektlari iqtisodiy faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan maqsad va vazifalariga erishishning natijaviyligi va samaradorligini doimiy nazorat qilish imkoniyatini beradi.

Albatta, viloyat iqtisodiyotining kichik tadbirkorlikka yo'naltirilganligi, kichik tadbirkorlik sub'ektlari faoliyati qanday rivojlanayotganligiga qarab, tadbirkorlik faoliyati rivojlanish darajasini baholash bo'yicha taklif etilayotgan mezon va ko'rsatkichlarga o'zgartirish kiritib, qo'shimcha mezon va baholash ko'rsatkichlari joriy etilishi mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- Глухих П.Л. Социально-экономическая оценка реализации предпринимательского потенциала в муниципальных образованиях. Автореферат дисс.на соис. уч. степ.канд.экон наук. Екатеринбург. 2013



- 
2. Доронина И.Э. Управление развитием предпринимательского потенциала мезоуровня. Дис.уч.ст.к.э.н. -М.: 2018.-C.72-78.
  3. Yoziev G'. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakat innovatsion rivojidagi salohiyatini oshirishning asosiy yo'nalishlari( Osiy-Tinch okeani mintaqasi mamlakatlari tajribasi misolida) .: Iqt.fan. nomz. diss.avtoref. -T.: 2019. -17 b.
  4. Jalolov I.Korxona iqtisodiy salohiyatining statistik tahlil qilish usullarini takomillashtirish.: Iqt.fan. nomz. diss.avtoref. -T.: 2021.-14 b.
  5. Ibragimova. M. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining tarkibiy o'zgarishlar asosida samaradorligini oshirish.: Iqt.fan. nomz. diss.avtoref. -T.: 2018. -14 b.
  6. Inoyatov U.U. Hududiy tadbirkorlik faoliyatining statistik usullardagi tahlili.: Iqt.fan. nomz. diss.avtoref. -T.: 2018.12-17 b.